KOREYA URUSHI VA UNGA XALQARO KUCHLARNING ARALASHUVI

Urunov Xasan Rayimovich
Samarqand Davlat Universiteti

Annotatsiya. *Koreya urushi va ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat tarixidagi eng yirik voqealardan biri bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi tugab, mamlakat iqtisodiy ahvoli hali to‘liq izga tushmagan, aholining yashash turmush -tarzi ham yaxshi ta’minlanmay turib bir xalqning bir-biri bilan urush olib borishi har ikkala tomonni ham holdan toydirdi.*

Ushbu maqolada urush jarayonlari, uning borishi, urushga xalqaro kuchlarning aralashuvi, yirik davlatlarning qaysi tomonda turish masalalari kabi ma’lumotlar keltirilib o‘tiladi. Shuningdek urush davomida tomonlarning qurollanish masalalariga alohida e’tibor qaratilib o‘tiladi. Urush u yoki bu tomonning g‘alabasi bilan tugamasin unda faqatgina oddiy xalq qiynaldi. Bir millat, yagona xalq bo‘lsada bir-biriga nisbatan qurol ko‘targani tarixning eng dahshatli voqealaridan biri bo‘lib qoldi.

Kalit so‘zlar: *AQSH, urush, zirhli harbiy mashina, shartnoma, tashqi siyosat, Xitoy, okkupatsiya, piyoda qo‘shin, kommunistik, sovet ittifoqi.*

Аннотация. *Это было одно из самых значимых событий в истории страны после Второй мировой и Корейской войн. Конфликт между одними и теми же людьми — разразившийся сразу после Второй мировой войны, когда национальная экономика еще не успела окончательно стабилизироваться, а уровень жизни населения — выйти на надежный уровень, — привел обе стороны к полному истощению.*

В данной статье представлена информация о динамике и ходе войны, вмешательстве международных сил и позициях, занятых ведущими державами. Особое внимание также уделено вооружению противоборствующих сторон. Независимо от того, какая сторона одержала победу, страдали простые люди. Тот факт, что одна нация — единый народ — взялась за оружие против самой себя, остается одним из самых чудовищных событий в истории.

Ключевые слова: *США, война, бронированная военная машина, контракт, внешняя политика, Китай, оккупация, пехота, коммунист, Советский Союз.*

KIRISH// ВВЕДЕНИЕ

Ikkinchi jahon uruhsi tugab, hali butun dunyo mamlakatlatlarining iqtisodiy-siyosiy va ular aholisining yashash turmush -tarzi yaxshilanmay turib, yana yangidan-yangi siyosiy o‘yinlar va qurolli to‘qnashuvlar boshlanib ketdi. Bunga mamlakatlar o‘rtasidagi chegara masalalari bo‘lsa, boshqa bittasi uchun mustamlakachilik tuzumining asta-sekin yemirila boshlashi va yo‘qotilgan hudud va bozor o‘rnini qayerdan to‘ldirish kerak degan savol sabab bo‘ldi. Ba’zi millat vakillari yagona xalq sifatida etnik birlikni tashkil etib yashab kelgan bo‘lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin ularning davlati siyosiy jihatdan bo‘lib yuborildi. Osiyo qit’asida bularga Vyetnam, Koreyani misol keltirish mumkin. 1948-yil yagona Koreya davlati o‘rniga Janubiy Koreya Respublikasi (1948-yil 15-avgust) va shimolda Koreya Xalq demokratik respublikasi tashkil topdi.

Ikkinchi jahon urushida koalitsiyaning g’alabasidan keyin 5 yil o‘tib boshlangan Koreya urushi Yalta va Potsdam konferensiyalarining urushdan keying dunyo tartibi kuchlar tengligi va xalqaro tartib bo‘yicha qarorlar tizimiga jiddiy zarba berdi. Bir xalq va ikki va davlat o‘rtasida boshlangan bu mojaro dunyoning barcha burchaklaridan 20 ta mamlakatni qamrab olgan ,,cheklangan urushga’’ aylandi. Amerikalik harbiy tarixchi V. Stuk majoziy ma’noda aytib o‘tgani kabi „ Uchinchi jahon urushi hech qachon boshlanmaganiga hayron bo‘lish mumkin….Millionlab odamlar urushni oldindan ko‘rishdan doimiy qo‘rquvda yashadilar’’[28]

Tarixiy jarayonlarga e’tibor berilsa, urush oldindan rejalashtirib borilgandek ko‘rinadi. Sababi har ikki tomon ham armiya tizimini undagi harbilar soni va qurollarga alohida ahamiyat berib, ularning sonini ko‘paytirishga harakat qilgan. Bu bo‘yicha yetuk davlatlar bilan ittifoqqa ham kirishgan. 1950-yil yanvar oyida Vashington va Seul hukumati o‘rtasida o‘zaro mudofaa yordami to‘g‘risida bitim imzolandi. Unga ko‘ra, Janubiy Koreya o‘zining harbiy mashinalariga ega bo‘ldi.[29]

1949-yilgi Vashington va Seul hukumatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik kelishuvga ko‘ra, AQSH hukumati Janubiy Koreyaga o‘q-dorilar bilan 50.000 ta karabin **(**miltiq qismi qisqartirilgan va vazni yengillashtirilgan o‘qotar qurol turi hisoblanadi. U dastlab otliq askarlar (kavaleriyachilar) uchun oddiy uzun miltiqlardan ko'ra ot ustida foydalanishga qulay bo'lishi uchun yaratilgan.**)**, 2000 ta raketa otish moslamasi, 40,000 ta transport vositasi, yengil artilleriya vositalari hamda minomyotlar

[28] Стьюк У. Корейская война- М. 2002
[29] Торкунов А.В. -Корейский полуостров: метаморфозы послевоенной истории- М. 2008

hamda 70,000 ta snaryadni berdi.[30] Bu esa Seuldagi harbiy holatning naqadar urushga tayyorlanayotganini va shimoldan xavfsirayotganini anglatar edi.

Shimoldagi ahvol qanday edi. Albatta o‘zining yon ,,qo‘shnisi’’ bo‘lgan janubning bu qadar qurollanayotganini ko‘rib jim turmadi albatta. Shimolda militarizatsiya jarayonlari ham qizg’in kechdi. Maqsad esa janubni kuch bilan ,,ozod’’ qilish edi. 1949-yil 17-martda SSSR va KXDR o‘rtasida iqtisodiy va madaniy hamkorlik bo‘yicha birinchi davlatlararo xalqaro hamkorlik imzolandi. Bu voqea arafasida 1949-yil 5-mart kuni sovet ittifoqi rahbari I.Stalin Shimoliy Koreya davlat rahbari bo‘lib turgan Kim Ir Senni qabul qildi. Qabul jarayonida Shimoliy Koreya rahbari ayni damda Shimoliy Koreyaning harbiy qudrati janubnikidan ancha yuqori ekanligini ta’kidladi. Shunga qaramay. Stalin Shimoliy Koreyaga harbiy qurol va harbiy kemalarni yordam uchun yuborishini aytdi. Shu paytdan boshlab Shimoliy Koreya armiyasini modernizatsiya qilish va askarlar sonini oshirish boshlandi. Sovet armiyasidan askarlar yuborildi. Bularning ichida Manchjuriyadagi yaponlarga qarshi kurash paytida harakat qilgan kotrys partizanlari va janubdan shimolgan qaochib o‘tgan koreys askaralri ham bor edi. 1949-yilda Sovet hukumati tomonidan umumiy qiymati 249,9 million rubl harbiy qurol-yarog‘ yetkazib berilgan bo‘lsa, 1950-yilga kelib bu ko‘rsatkich yanada oshib 869,6 million rublni tashkil etdi.

Seul va Pxenyan o‘rtasida 38-parallelning mavjudligiga qaramay, ikki o‘rtada bir necha qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. 1949-yildan 1950-yilning boshlariga qadar 38-parallelga tutashgan hududlarda 1800 dan ortiq qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Bu kuniga hisoblansa taxminan, 2-3 ta to‘qnashuvni tashkil etgan. Bunday to‘qnashuvlardan tashqari, har ikki tomonning ham bir-biriga ommaviy namoyishlari bo‘lib turdi. 1949-yilda Shimoldagi xavfsizlik idoralari sabotaj harakatlarini tayyorlashda, dushmanona targ‘ibotda ishtirok etganlikda ayblanib, 5762 kishini hibsga oldi.

Ochiq urush boshlanishidan bir yarim oldin, Janubiy Koreya generallaridan biri bo‘lmish Kim Sok Von baralla ovozda shimolliklar uchun ozodlik yurishi yaqinlashganini va u Shimoliy Koreyaning strategik markazlaridan ,,Xedjuda nonushta, Pxenyanda tushlik, va Vonsanda kechki ovqatlanishini’’ aytib o‘tdi[31]

Urush harakatlarining boshlanishi arafasida AQSH diplomatiyasining Janubga nisbatan sezilarli darajada kuchayganligini sezish mumkin. 1950-yil 17-iyunda D.F.

[30] Торкунов А.В. -Корейский полуостров: метаморфозы послевоенной истории- М. 2008

[31] Торкунов А.В. -Корейский полуостров: метаморфозы послевоенной истории- М. 2008

Dalles AQSH prezidentining maxsus vakili sifatida Seulga keldi. 38-parallel bo‘ylab o‘tkazilgan shimolliklar bilan muzokaralarda qatnashganda asosiy mavzu harbiy mavzu bo‘lib qoldi. AQSH vakili Janubiy Koreya parlamenti-Milliy Assambleyasida so‘zga chiqib janubliklarga bu urushda ular hech qachon yolg‘iz qolmasliklarini, chunki ular inson erkinliklari uchun ezgu ishni amalga oshiriyotganligini qayta-qayta takrorladi.

Sovet ittifoqi hokimiyati 1949-yilgacha Koreyaning birlashishiga befarq bo‘ldi. Ammo keyinchalik, Shimoliy Koreya Bosh shtabida harbbiy maslahatchi general Vasilevning bevosita ishtiroki bilan urush rejalari ishlab chiqildi va Shimoliy Koreya qurolli kuchlari tuzildi. Shimolni qo‘llab-quvvatlash orqali Sovet Ittifoqi ikkinchi jahon urushi yillarida qo‘lga kiritilgan Sharqiy Osiyo mintaqasidagi mavqeini mustahkamlashga harakat qildi.[32]

Urush 1950-yil 25 -iyun kuni boshlanib 1953-yil 27-iyulgacha davom etdi. Urush natijalari koreys xalqining ikki davlatga bo‘linganini yana bir bor dunyo hamjamiyatiga ko‘rsatib berdi. Urushning dastlabki vaqtlarida Shimol armiyasi Janub armiyasini shiddat bilan orolning janubiy-sharqiy chekkalariga surib chiqardi va Janubiy Koreyaning katta qismini egallab oldi. Biroq Birlashgan Millatlar Tashkilotininng Xavfsizlik Kengashi qaroriga ko‘ra, Janubiy Koreya tomonidan davlatlarning urushga kirishi, avvalo, AQSHning urushga kirishi urush jarayonlarining janub tomonga hal bo‘lishida asosiy rol o‘ynadi. Urush harakatlarida Shimolni aybdor qilib ko‘rsatish AQSH hukumati uchun juda ma’qul ish edi. Shu bilan u xalqaro tashkilotlar va davlatlarning yordamiga tayanishni reja qilgan edi. Bu borada AQSH hukumat a’zoalrining urusjdan oldinroq kichik bir majlisida Stalin va Kim Ir Senni birinchi bo‘lib zarba berishga majburlash, shundan so‘ng jahon jamoatchilik fikrini tajovuzkorlikni qoralash va Shimoliy Koreyaga to‘liq harbiy kuchni qo‘llash uchun safarbar qilishga qaratilgan edi. AQSH ning asosiy maqsadi esa Uzoq Sharqdagi mavqeini mustahkamlash va urushda xalqaro maydonda Sovet Ittifoqini aybdor qilib ko‘rsatish edi.

Urush boshlangani haqidagi xabar AQSHning o‘sha vaqtda Seuldagi elchisi Jon Muchcho tomonidan xabar qilingacha AQSH davlat kotibi Acheson Birlashgan Millatlar Tashkilotiga rasmiy xabar bilan chiqdi. Shundan so‘ng tashkilotning Xavfsizlik Kengashi Nyu-Yorkda Qo‘shma Shtatlar tomonidan taqdim etilgan Shimoliy Koreyaning ,,asossiz tajovuzi’’ga qarshi kollektiv choralar ko‘rishga va sulh tuzishga qaratilgan rezolyutsiya loyihasini ko‘rib chiqdi. Ushbu kengashda Buyuk Britaniya, Fransiya, Misr, Norvegiya va Hindiston vakillari ,,asossiz tajovuz’’ degan

[32] Окороков А. - Секретные войны Советского Союза. М.2008

ayblovga qarshi chiqdilar. Ular o‘z pozitsiylarini Koreyadagi urush bu fuqarolar urushi ekanligi bilan izohladilar. Ammo, bu qarorlar kengashda rad etilib oxir-oqibat AQSH tomonidan taklif etilgan rezolyutsiya to‘qqizta ovoz bilan „yoqlanib’’ qabul qilindi. Yugoslaviya vakili bu masalada betarafligini ta’kidlagan bo‘lsa, Sovet Ittifoqi vakili Yakov Malik esa Kengashga qatnashmadi. Sababi esa, Xitoydagi Chan Kayshi hukumati o‘rniga tashkil topgan kommunistik davlatning Kengash tomonidan tan olinmagani edi.[33]

Xulosa qilib aytish mumkinki, Koreya urushi bu bir millatning urushi emas aksincha bu davrda dunyo siyosati muhim rol ahamiyat kasb etgan ikki buyuk davlatlarning yana bir bor to‘qnashuvi edi. Koreya urushi davomida ikki buyuk davlatlar AQSH va Sovet Ittifoqi imkon qadar bu yarimorolda o‘z pozitsiyasini ushlashga harakat qildi. Natijada har ikki koreys davlatining iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli yanada og‘irlashdi. Faqatgina XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yillariga kelib Janubda iqtisodiy o‘sish boshlandi. Chet-el investitsiyalari natijasida mamlakatda yirik-yirik kompaniyalar vujudga kela boshladi. Samsung, LGlar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Торкунов А. В., Денисов В. И., Ли Вл. Ф. Корейский полуостров: метаморфозы послевоенной истории. — Москва: Олма Медиа Групп, 2008. — 541 с.
2. Окороков А. Секретные войны Советского Союза. — Москва, 2008.
3. Ванин Ю. В. Некоторые вопросы предыстории и начала корейской войны // Война в Корее 1950–1953 гг.: взгляд через 50 лет. — Москва, 2001.
4. Орлов А. С., Гаврилов В. А. Тайны корейской войны. — Москва, 2003.
5. Стьюк У. Корейская война. — Москва, 2002.
6. Xan V. Koreya tarixi. — Toshkent, 2013.

[33] Окороков А. - Секретные войны Советского Союза. М.2008